



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

“BOBURNOMA” ASARIDA QO‘LLANGAN METONIMIK BIRLIKLARNING KOGNITIV TAHLILI

COGNITIVE ANALYSIS OF METONYMIC UNITS USED IN THE WORK “BABURNAMA”

Muzaffarova Zarrina Umarjon qizi

Tayanch Doktorant (Phd)

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: zarinamuzaffarova891@gmail.com

ORCID: 0000-0003-4508-5047

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./JHIT3990](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./JHIT3990)

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida kognitiv metonimiyaning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kognitiv tilshunoslik yondashuvi asosida metonimiyaning inson tafakkuri, tajribasi va konseptual tizimi bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Asardagi tarixiy voqealar, shaxslar, joy nomlari hamda ijtimoiy-hayotiy tasvirlar orqali yuzaga kelgan metonimik birliklar aniqlanib, ularning kognitiv funksiyalari yoritiladi. “Qism–butun”, “sabab–oqibat”, “muallif–asar”, “joy–hodisa” kabi metonimik modellar misollar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari “Boburnoma” tilining badiiy-estetik va kognitiv imkoniyatlarini chuqurroq anglashga, shuningdek, o‘zbek adabiy tilida metonimiya hodisasini kognitiv nuqtayi nazardan o‘rganishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kognitiv tilshunoslik, kognitiv metonimiya, metonimik model, konseptual tafakkur, tarixiy matn, “Boburnoma”, Zahiriddin Muhammad Bobur, badiiy matn tili, kognitiv tahlil, til va tafakkur.

Annotation. In this thesis, the features of the expression of cognitive metonymy in the work of Zahiriddin Muhammad Babur “Baburnama” are analyzed. The study reveals the connection of metonymy with human thinking, experience, and conceptual system based on the cognitive linguistic approach. Metonymic units arising from historical events, personalities, place names, and socio-vital images in the work are identified, and their cognitive functions are highlighted. Metonymic models such as “part-whole,” “cause-effect,” “author-work,” “place-event” are analyzed based on examples. The research results serve a deeper understanding of the artistic-aesthetic and cognitive possibilities of the language of “Baburnama,” as well as the study of the phenomenon of metonymy in the Uzbek literary language from a cognitive point of view.

Keywords. Cognitive linguistics, cognitive metonymy, metonymic model, conceptual thinking, historical text, “Baburnama,” Zahiriddin Muhammad Babur, language of literary text, cognitive analysis, language and thinking.



Bugungi kunda tilshunoslikda til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, kognitiv tilshunoslik yo'nalishi til birliklarini insonning idrok jarayoni, tajribasi va konseptual dunyoqarashi bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv doirasida metonimiya faqatgina badiiy vosita sifatida emas, balki inson tafakkurining muhim kognitiv mexanizmlaridan biri sifatida talqin etiladi. Metonimiya metafora singari zamonaviy gumanitar sohalarda turli yo'nalishlar doirasida o'rganiladi: adabiyotshunoslik va stilistikada troplarning bir turi sifatida, leksik semantikada muntazam ko'p ma'nolilikning bir turi sifatida, psixolingvistika va kognitiv tilshunoslikda esa til shaklida ifodalangan aqliy operatsiyalarning bir turi sifatida talqin qilinadi [Болсуновская, 2015:1345]. Tilshunoslikda mavjud zamonaviy yo'nalishlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning har birida metonimiya hodisasi alohida tadqiqot obyektiga aylanib ulgurgan. Bizga ma'lumki, yozuvchilar badiiy asar tilini imkon darajasida takrorlanmas o'zgacha uslubda yaratish uchun til vositalaridan unumli foydalanishadi. Badiiy asarlar tilini jozibali va ifodaliligini ta'minlovchi, badiiy qimmatini oshiruvchi vositalardan hisoblanmish ko'chimlar (metonimiya, metafora, sinekdoha va h.k) har qanday davrda yozilgan adabiy va tarixiy asarlarda salmoqli o'rinni egallaydi. Bizning diqqat markamizdagi masala esa metonimiya bilan bog'liq jarayonlarga bag'ishlanadi. Metonimiya hodisasi an'anaviy tilshunoslikda voqea-hodisa, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'shish turi sifatida ta'riflanadi. Metonimiya hodisasi ham qiyosga asoslanadi [Yo'ldoshev, 2010:65]. Metonimiyaning asl mohiyati har qanday belgi yoki harakatning biridan ikkinchisiga aloqadorlik asosida ko'chishidir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tilshunoslikning tobora rivojlanib borayotgan zamonaviy yo'nalishlari metonimik birliklarni alohida bilim doirasidan kelib chiqib tadqiq qiladi. Kognitiv yo'nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlarda metonimiya voqelikda diqqat e'tiborimiz qaratilishi kerak bo'lgan tushunchani yanada aniqlashtirish maqsadida kichik konseptga ishora qilish orqali butun konseptni yoki aksincha butun orqali kichik konseptni ifodalashi mumkin bo'lgan birlik sifatida e'tirof etiladi [Muzaffarova, 2025:141].

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o'zbek adabiy tilining bebaho yodgorligi bo'lib, unda tarixiy voqealar, ijtimoiy munosabatlar, shaxslar va makon tasvirlari boy va rang-barang til vositalari orqali ifodalangan. Asar tilida uchraydigan metonimik birliklar Boburning voqelikni idrok etish uslubi hamda uning konseptual dunyoqarashini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan “Boburnoma”dagi metonimiyani kognitiv nuqtayi nazardan o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Mazkur tezisda “Boburnoma” matnida uchraydigan kognitiv metonimiya namunalari aniqlanib, ularning kognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Bobur asari tilida metonimiyaning qanday konseptual modellar asosida yuzaga kelishini aniqlash



hamda uning badiiy va kognitiv ahamiyatini ochib berishdan iborat. Badiiy matnda metonimiya muallifning niyatini yashirin ravishda yetkazish, obrazlarni jonlantirish, voqelikning muayyan jihatini bo'rttirish, emotsional-estetik fon yaratish kabi funksiyalarni bajaradi. Shu bois badiiy matnni tahlil qilishda metonimiyaning kognitiv mexanizmlarini aniqlash zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishi hisoblanadi. “Boburnoma” tarixiy -memuar asar sanaladi. Shu bois bu asarda uchrovchi metonimik birliklar o'sha davrda mavjud ijtimoiy muhit, hokimiyat, jang, joy nomi bilan bog'liq. Shulardan bir nechtasi tahlil qilishga urinib ko'ramiz: *O'ratepa Hofizbek Dulday qo'lida edi, Umarshayx Mirzoga berdi. Shundan so'ng O'ratepa Umarshayx Mirzo tasarrufiga o'tdi* [Boburnoma, 2008:6]. Mazkur gapda metonimik markaz joy nomi hisoblanadi, ya'ni O'ratepa toponimidir. Bu nom har ikki holatda ham geografik obyekt sifatida emas, balki siyosiy-ma'muriy hukmronlik obyekt sifatida qo'llangan. Kognitiv nuqtayi nazardan bu yerda joy nomi orqali shu joyga bog'liq bo'lgan butun ijtimoiy-siyosiy tizim: aholi, soliq tizimi, harbiy resurslar va boshqaruv huquqi ifodalanadi. Ushbu metonimik birlik “hudud–hokimiyat” ideallashtirgan kognitiv modelga tayanadi. Tarixiy-siyosiy tafakkurda muayyan hududni nazorat qilish o'z-o'zidan u yerdagi siyosiy hukmronlikni qo'lga kiritish deb tushuniladi. Shu sababli ongda joyning o'zi emas, balki u orqali amalga oshiriladigan tasarruf huquqi muhim tushuncha sifatida yuzaga chiqadi. “Boburnoma” asarida bu turdagi metonimik birliklar juda ko'p qo'llangan. Masalan, *Xon Axsi atroflariga yetganda bu beklar xon tomoniga o'tib Kosonni berdilar* [Boburnoma, 2008:8]. *Garchi Xuroson niyati bilan yo'lga chiqqan bo'lsak-da, lekin shu ahvolimizda bu viloyatdan na Xisravshoh navkarlaridan umidvorlik bor edi* [Boburnoma, 2008:103]. Bundan tashqari asarda yana bir guruh metonimik guruhlar aloqador birliklar uchraydi. Masalan, *Barcha sultonlar, xonlar, ulug'lar va amirlar oshdan burun oltin, kumush, mis pullar va kiyimlik matolar tortiq qildilar*. Mazkur gapda kognitiv metonimiya ijtimoiy va marosimiy konseptlar asosida yuzaga chiqadi. “Osh” so'zi taom nomi orqali rasmiy ziyofat va marosimni bildiradi. Metonimik modeli: taom → marosim / rasmiy yig'in. Bu yerda *osh* oddiy ovqat emas, balki katta rasmiy ziyofat, marosim ma'nosida ishlatilgan. Ovqat nomi orqali butun ijtimoiy voqea konseptualizatsiya qilinadi. *Ertasiga ertalab tarxoniyalar yig'ilib Xojago Xojaning eshigiga boradilar* [Boburnoma, 2008:50]. Mazkur gapda “eshik” leksemasi qism orqali butunni anglatib, shaxsning huzuri va qarorgohini bildiradi. Bu holat PART → WHOLE tipidagi kognitiv metonimiyaning namunasidir. Tarixiy va rasmiy matnlarda “eshik” so'zining bunday qo'llanilishi ijtimoiy munosabat va ierarxiyani ifodalovchi barqaror konseptual birlik hisoblanadi. “Eshik” so'zi inson tafakkurida ichki makonga kirish nuqtasi, shaxs bilan uchrashishning ramziy chegarasi, ijtimoiy aloqa boshlanadigan joy ma'nosida namoyon bo'ladi. Shu sababli ongda “eshigiga borish” → “qabuliga kirish”, “huzuriga borish” tarzida konseptuallashadi. Mazkur tadqiqotda “Boburnoma” asarida qo'llangan



metonimik birliklar kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, asarda metonimiya faqat badiiy bezak vositasi sifatida emas, balki muallifning tarixiy voqelikni konseptuallashtirish usuli sifatida faol qo‘llanilgan. Metonimik birliklar orqali ijtimoiy maqom, marosimiy munosabatlar, hokimiyat tuzilmalari va madaniy qadriyatlar ixcham hamda aniq tarzda ifodalangan. Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma”dagi metonimik birliklarning kognitiv tahlili ushbu asarning nafaqat tarixiy va adabiy, balki lingvokognitiv manba sifatidagi ahamiyatini ham namoyon etadi. Bu esa klassik matnlarni zamonaviy kognitiv yondashuv asosida o‘rganish istiqbollarini kengaytiradi.

Adabiyotlar:

1. Болсуновская Л. М., Хоречко У. В. Концептуальные метонимии в историческом тексте (на примере «Полного курса лекций по русской истории» С. Ф. Платонова) // *Молодой ученый*. — 2015. — № 9 (89). — С. 1345–1348. — URL: <https://moluch.ru/archive/89/18572> (дата обращения: ____).
2. Yo‘ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili : metodik qo‘llanma / mas’ul muharrir N. M. Mahmudov. — Toshkent : Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. — 112 b.
3. Muzaffarova Z. U. Kognitiv tilshunoslikda metonimiyaning o‘rganilishiga oid qarashlar // *New Renaissance: International Scientific and Practical Conference*. — 2025. — Vol. 2, Iss. 9. — P. 141–142. — DOI: 10.5281/zenodo.17217994.
4. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma / tahrir hay’ati: A. Qayumon, X. Sultonov, B. Alimov va boshq. — Toshkent: Xalqaro Bobur fondi, “O‘dil nashr” NMIU, 2008. — 288 b.